QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

XODIYEVA GULHAYO HASAN QIZI

“4K” MODELI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING LIDERLIK SIFATLARINI TARBIYALASH MEXANIZMLARI

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent - 2026

UDK: 373.3.015.31:005.322:316.46

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences

Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi
“4K” modeli asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining liderlik sifatlarini tarbiyalash mexanizmlari
…….. 4

Ходиева Гулхаё Хасан кизи
Механизмы формирования лидерских качеств у учащихся начальных классов на основе модели “4К” 23

Khodieva Gulkhayo Khasan qizi
Mechanisms for developing leadership qualities of primary school students based on the “4C” Model …… 42

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ……. 46

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Ped11302 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Institutning veb-sahifasida (www.qoriniyoziytpmi.uz/) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Maxmudov Abdulxalim Xamidovich** pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xusanova Sumbul Islamovna,** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, **Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna,** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ “_____”soatdagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 5-uy. Tel.: (99855) 511-02-69; faks: (99855) 511-02-69; e-mail: uzpfiti@umail.uz, uzpfiti@exat.uz)

Dissertatsiya bilan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 5-uy. Tel.: (99855) 511-02-69; faks: (99855) 511-02-69; e-mail: uzpfiti@umail.uz, uzpfiti@exat.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «_____» _____ dagi «____» raqamli reyestr bilan tarqatildi.

(2026-yil “____” ____ _____dagi _____- raqamli reyestr bayonnomasi).

M. Quronov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
p.f.d. (PhD), professor

B.M.Xakimova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
p.f.f.d. (PhD)

Sh. Q. Mardonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (Phd) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta’lim amaliyotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. UNESCOning “Education 2030: Incheon Declaration” hujjati, OECDning “Learning Compass 2030” modeli hamda Yevropa Ittifoqining umrbod ta’limga oid tayanch kompetensiyalar bo‘yicha tavsiyalarida o‘quvchining mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi va boshqalar bilan hamkorlik qila olishi muhim ta’lim natijalari sifatida qaraladi. Biroq ushbu ko‘nikmalarni egallashning o‘zi o‘quvchining jamoada tashabbus ko‘rsatishi, mas’uliyatni zimmasiga olishi va tengdoshlarini umumiy maqsad sari birlashtirishini avtomatik tarzda ta’minlamaydi. Shu bois 4K modeliga tayangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga yoshiga mos yetakchilik vazifalarini berish, ularning guruhdagi faol ishtirokini tashkil etish va liderlik sifatlarini izchil rivojlantirish dolzarb amaliy vazifadir.

Jahon ilmiy tadqiqotlarida kreativ va tanqidiy fikrlashni o‘qitish hamda baholash, o‘quvchi faolligini kuchaytirish, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish masalalari o‘rganilmoqda. Bu izlanishlarda muammoli topshiriqlar, hamkorlikdagi faoliyat va refleksiya orqali o‘quvchilarning fikr bildirish hamda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sirasiga kiradi. Mazkur tadqiqot nuqtayi nazaridan 4K modelining to‘rt tarkibiy qismini boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi liderlikning kuzatiladigan namoyonlari - tashabbus ko‘rsatish, vazifalarni taqsimlash, boshqalarning fikrini tinglash, kelishuvga erishish va umumiy natija uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish bilan bog‘laydigan pedagogik mexanizmni aniqlashtirish zarur. Shuningdek, ushbu sifatlarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, metodik modeli, mezonlari va baholash vositalarini ilmiy asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda boshlang‘ich ta’lim mazmuni va darsliklarini yangilash, o‘quvchilarning erkin fikrlashi, muloqoti hamda jamoada ishlashini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Yangi avlod darsliklarida 4K ko‘nikmalariga e’tibor qaratilishi va tarbiya metodikalarini tadqiq etish bo‘yicha institutsional imkoniyatlarning kengayishi bu boradagi ishlar uchun asos yaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida: “O‘quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarur”, - deb ta’kidlagan. Ushbu vazifadan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf darslari va tarbiyaviy faoliyatda 4K ko‘nikmalarini o‘quvchilarning tashabbuskorligi, mas’uliyatliligi va hamkorlikdagi yetakchilik faoliyati bilan uzviy bog‘lash, buning uchun samarali metodik vositalarni ishlab chiqish hamda natijadorligini tajriba-sinov asosida baholash dolzarbdir.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son “2022–2026-

yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari; Prezidentning 2024-yil 21-iyundagi PQ-232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida” hamda 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda ushbu hujjatlarda belgilangan chora-tadbirlar ijrosiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Makur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan X.I.Ibraimov, R.X.Djuraev, R.G.Safarova, B.S.Abdullayeva, B.R.Adizov va boshqalarning tadqiqotlarida ta’lim mazmunini takomillashtirish, boshlang‘ich ta’limni tashkil etish hamda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Ushbu ishlar 4K ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini yoritishda ahamiyatli bo‘lsa-da, mazkur olimlarning barchasi aynan “4K modeli asosida liderlik sifatlarini shakllantirish” masalasini tadqiq etgan, deb talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida A.A.Bodalev, A.A.Derkach, N.V.Kuzmina, A.A. Rean va I.A.Zimnyayaning ilmiy ishlarida shaxs rivojlanishi, muloqot, faoliyat va kompetentlikka oid masalalar yoritilgan. L.S.Vygotskiyning ta’lim va rivojlanishning o‘zaro aloqasi haqidagi ilmiy qarashlari ham o‘quvchining boshqalar bilan birgalikdagi faoliyatini tushuntirish uchun nazariy ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hamkorlikdagi faoliyatini o‘rganishga asos bo‘ladi, biroq ularni bevosita 4K modeliga bag‘ishlangan tadqiqotlar sifatida ko‘rsatish ilmiy jihatdan aniq emas.

Xorijda J.P.Guilford ijodiy tafakkur, B.Bloom bilish faoliyati natijalarini tasniflash, H. Gardner intellektning turli ko‘rinishlari, M.Csikszentmihalyi ijodiy faoliyat jarayoni bilan bog‘liq ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqqan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa kreativlik va tanqidiy fikrlashni boshlang‘ich hamda o‘rta ta’limda rivojlantirish va baholashga qaratilgan pedagogik vositalar sinovdan o‘tkazilgan. Mazkur izlanishlar tadqiqot mavzusining ayrim tarkibiy jihatlarini asoslashga yordam beradi.

Biroq**,** keltirilgan tadqiqot yo‘nalishlari 4K ko‘nikmalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini rivojlantirish bilan o‘zaro bog‘liqligini yaxlit

pedagogik jarayon sifatida ochib berish uchun yetarli emas. Shu holat 4K modeli asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov orqali aniqlash zaruratini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti ishlari rejasiga muvofiq bajarilishi nazarda tutilmoqda.

Tadqiqot ishining maqsadi “4K” modeli asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqodning vazifalari:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, ushbu jarayonning pedagogik shart-sharoitlari va tarkibiy komponentlarini aniqlash;

matematika darslarida tanqidiy va kreativ fikrlashni, tarbiya darslarida muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali liderlik sifatlarini tarbiyalashning didaktik imkoniyatlarini aniqlash hamda metodik ta’minotini ishlab chiqish;

4K modeli asosida liderlik sifatlarini tarbiyalashning funksional-pedagogik modelini ishlab chiqish, uni motivatsion, faoliyatli va refleksiv bosqichlarda amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish;

liderlik sifatlarining shakllanganlik darajasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish, taklif etilgan metodika samaradorligini tajriba-sinov hamda matematik-statistik tahlil asosida aniqlash, ilmiy-amaliy tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini tarbiyalash jarayonidir. Tajriba-sinov ishlariga Andijon va Sirdaryo viloyatlari hamda Toshkent shahridagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1182 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti matematika va tarbiya darslarida 4K modeli asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining liderlik sifatlarini tarbiyalash mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari va pedagogik shart-sharoitlaridan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar va ta’lim hujjatlarini tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish, kuzatish, so‘rovnoma, test, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov hamda uning natijalarini matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini tarbiyalashning pedagogik mazmuni “4K” modeliga tayangan holda kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va kollaborativlik kompetensiyalarining tashabbuskorlik, mustaqil qaror qabul qilish, tashkilotchilik hamda mas’uliyatlilikni tarbiyalashdagi o‘zaro aloqadorligini ochib berish asosida aniqlashtirilgan;

tarbiya va matematika darslarida liderlik sifatlarini tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari “Bir masala – turli yechimlar” va “Guruh kelishuvi” integrativ topshiriqlari orqali ijodiy yechim izlash, dalillarni tahlil qilish, fikr almashish va hamkorlikda ishlashni o‘quvchilarning umumiy qarorni shakllantirish hamda uning bajarilishi uchun mas’uliyatni zimmasiga olish faoliyati bilan uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini tarbiyalashning funksional-pedagogik modeli “Navbatdagi yetakchi” mexanizmi orqali har bir o‘quvchining faoliyatni rejalashtirish, vazifalarni kelishib taqsimlash, guruh ishini muvofiqlashtirish va natijani tahlil qilish vazifalarini navbat bilan bajarishini motivatsion, faoliyatli va refleksiv bosqichlarga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

o‘quvchilarda liderlik sifatlarining shakllanganligini baholash metodikasi yetakchilikka intilish, qarorini asoslash, guruh faoliyatidagi mas’uliyat va o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish ko‘rsatkichlarini motivatsion, kognitiv va faoliyatli mezonlarga muvofiqlashtirish hamda yuqori (mustaqil va izchil namoyon etish), o‘rta (qisman ko‘mak bilan bajarish) va quyi (muntazam yo‘naltirishga ehtiyoj sezish) darajalardagi boshlang‘ich va yakuniy natijalarni qiyoslash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

4K modeli asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining liderlik sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan konseptual yondashuv va pedagogik mexanizmni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiluvchi mazmun, shakl va metodlar tizimi ishlab chiqilgan hamda metodik ta’minot bilan boyitilgan;

matematika va tarbiya darslarida kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va kollaborativlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, jamoaviy mashg‘ulotlar hamda ulardan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda ulardan foydalanishning metodik asoslari belgilangan;

4K modeli asosida ishlab chiqilgan funksional-pedagogik modelni ta’lim jarayonida amalga oshirish uchun motivatsion, faoliyatli va refleksiv bosqichlardan iborat pedagogik texnologiya takomillashtirilib uni joriy etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmi ishlab chiqilgan;

liderlik sifatlarining shakllanganlik darajasini aniqlashga mo‘ljallangan diagnostik topshiriqlar, mezonlar, ko‘rsatkichlar va baholash indikatorlari hamda monitoring vositalari ishlab chiqilgan, tajriba-sinov jarayonida ularning amaliy samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot bo‘yicha nazariy yondashuvlar, metodlarning respublikamiz va xorijda yaratilgan pedagogikaga oid ilmiy va ilmiy-metodik tadqiqotlarga, amaliyotchi-pedagoglarning tajribasiga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanilganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang‘ich ta’lim tizimida “4K” modeli asosida o‘quvchilarda liderlik sifatlarini tarbiyalash va shakllantirishga doir nazariy yondashuvlarni takomillashtirilganligi, mazkur jarayonning mazmuniy, metodologik va pedagogik jihatdan ilmiy asoslanganligi, shuningdek, matematika va tarbiya darslari orqali o‘quvchilarda ijodiy, tanqidiy, kommunikativ va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari aniqlashtirilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari pedagogika nazariyasi va ta’lim metodikasi sohasida ilmiy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda liderlik sifatlarini “4K” modeli asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlari, metodik tavsiyalar, uslubiy ko‘rsatmalar va o‘quv-metodik materiallardan ta’lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan ifodalanadi. Shuningdek, tadqiqot materiallari darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va o‘quv dasturlarini takomillashtirishda hamda o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: “4K” modeli asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining liderlik sifatlarini tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini tarbiyalashning pedagogik mazmuni “4K” modeliga tayangan holda kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va kollaborativlik kompetensiyalarining tashabbuskorlik, mustaqil qaror qabul qilish, tashkilotchilik hamda mas’uliyatlilikni tarbiyalashdagi o‘zaro aloqadorligini ochib berish asosida aniqlashtirishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalari Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida bajarilgan IL-662204257-raqamli “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1–2-sinflari uchun ‘Tabiiy fanlar (Science)’ fanidan multimediali dasturiy mahsulot yaratish” nomli olima ayollar innovatsion loyihasi doirasida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2026-yil 22-iyundagi 01-09/447-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, multimediali ta’lim materiallarining “4K” kompetensiyalari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan mazmuni boyitilgan;

tarbiya va matematika darslarida liderlik sifatlarini tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari “Bir masala – turli yechimlar” va “Guruh kelishuvi” integrativ topshiriqlari orqali ijodiy yechim izlash, dalillarni tahlil qilish, fikr almashish va hamkorlikda ishlashni o‘quvchilarning umumiy qarorni shakllantirish hamda uning bajarilishi uchun mas’uliyatni zimmasiga olish faoliyati bilan uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflari boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Matematika o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmunida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 918542-sonli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ topshiriqlar orqali o‘quvchilarda liderlik sifatlarini tarbiyalashga tayyorlashning metodik ta’minoti boyitilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini tarbiyalashning funksional-pedagogik modeli “Navbatdagi yetakchi” mexanizmi orqali har bir o‘quvchining faoliyatni rejalashtirish, vazifalarni kelishib taqsimlash, guruh ishini muvofiqlashtirish va natijani tahlil qilish vazifalarini navbat bilan bajarishini motivatsion, faoliyatli va refleksiv bosqichlarga integratsiyalash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalaridan “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bolalar va biz”, “Ta’lim va taraqqiyot” dasturlarida, “Qadriyat”, “Ma’naviyat saboqlari” kabi radioeshittirishlar senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 24-oktyabrdagi 05-09-1674-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuv va radioeshittirishlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yetakchilik vazifalarini navbat bilan bajarish orqali tashkilotchilik va mas’uliyatlilikni tarbiyalashga oid mazmuni boyitilgan;

o‘quvchilarda liderlik sifatlarining shakllanganligini baholash metodikasi yetakchilikka intilish, qarorini asoslash, guruh faoliyatidagi mas’uliyat va o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish ko‘rsatkichlarini motivatsion, kognitiv va faoliyatli mezonlarga muvofiqlashtirish hamda yuqori (mustaqil va izchil namoyon etish), o‘rta (qisman ko‘mak bilan bajarish) va quyi (muntazam yo‘naltirishga ehtiyoj sezish) darajalardagi boshlang‘ich va yakuniy natijalarni qiyoslash asosida takomillashtirishga doir mualliflik g‘oyalari Toshkent, Andijon va Sirdaryo viloyatlaridagi umumta’lim maktablari amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi ta’limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazining 2026-yil 25-iyundagi 01/11-01/11-436-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarda liderlik sifatlarining shakllanish dinamikasini belgilangan mezon va darajalar asosida qiyosiy baholashning diagnostik ta’minoti takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy-uslubiy ish jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini nashr qilish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta maqola, shundan, 6 ta respublika, 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati kabilardan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning umumiy hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangilik, hamda tadqiqotning respublika fan rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, asoslab berilgan. Shuningdek ishning obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va tadqiqot metodlari aniqlangan. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy etilgani, aprobatsiyasi va nashr etilgan ishlari ko‘rsatilgan hamda dissertatsiya tuzilmasi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“4K modeli asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining liderlik sifatlarini tarbiyalashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida liderlik sifatlarining nazariy-metodologik asoslari, ularning boshlang‘ich ta’lim jarayonida shakllanish va rivojlanish mexanizmlari hamda 4K modelining mazkur jarayondagi pedagogik imkoniyatlari tizimli ravishda tahlil qilingan.

Tadqiqot davomida xorijiy, MDH mamlakatlari hamda mahalliy olimlarning liderlikka oid ilmiy qarashlari o‘rganilib, liderlikning mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilishi va uni rivojlantirish omillariga doir nazariy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, R.M.Stogdill tomonidan ishlab chiqilgan liderlik sifatlari nazariyasida tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik, qat’iyatlilik va ijtimoiy faollik lider shaxsning muhim tavsiflari sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, J.M.Burns va B.M.Basslarning transformatsion liderlik nazariyasida liderlik shaxsning tug‘ma xususiyati emas, balki maqsadli pedagogik ta’sir natijasida shakllanadigan va rivojlantiriladigan kompetensiyalar tizimi sifatida talqin etiladi.

MDH mamlakatlari olimlarining ilmiy izlanishlarida liderlik shaxsning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi hamda jamoaviy faoliyatni samarali tashkil etish qobiliyati bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Jumladan, A.A.Derkach va A.A.Rean tadqiqotlarida liderlik shaxsning refleksiv rivojlanishi, o‘z-o‘zini boshqarishi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikda o‘rganilgan bo‘lsa, N.V.Kuzmina va I.A.Zimnyaya tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yetakchilik shaxsning kasbiy hamda kommunikativ kompetensiyalari bilan bog‘liq holda izohlangan. L.S.Vygotskiy, A.N.Leontyev va D.B.Elkoninning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyalarida esa yetakchilik sifatlari o‘quvchining ijtimoiy faoliyatga faol jalb etilishi natijasida shakllanishi, faoliyat subyekti sifatida rivojlangan sari unda tashabbuskorlik, mustaqillik va mas’uliyat hissi kuchayib borishi asoslab berilgan. O‘zbekistonlik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham liderlik sifatlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari turli nuqtayi nazardan yoritilgan. Xususan, U.Y.Elmurodov liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etib, ta’lim sifati va boshqaruv samaradorligi liderlik kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog‘liqligini asoslagan bo‘lsa, Sh.D.Ablakulov hamda M.H.Quvvatova kreativlikni pedagogik yetakchilikning muhim tarkibiy komponenti sifatida talqin qilib, ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuv zamonaviy ta’limning ustuvor talabi ekanligini ko‘rsatib berganlar. A.M.Nazarov ilmiy-innovatsion faoliyat orqali tashabbuskorlik va mustaqillik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq etgan bo‘lsa, N.S.Xujayarova va A.T.Toshxonov kreativ hamda integrativ yondashuvlar asosida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali shaxsning liderlik salohiyatini shakllantirish imkoniyatlarini yoritganlar. F.R.Nuradinov baholash, tahlil qilish va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini liderlikning intellektual asosi sifatida tavsiflagan bo‘lsa, N.U.O‘rozboyev mas’uliyat va tashabbuskorlikni pedagogik liderlikning axloqiy-irodaviy negizi sifatida izohlagan.

Ikkinchi paragrafda 4K modeli tarkibiga kiruvchi kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va kollaborativlik kompetensiyalarining boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari turli fanlar doirasida qiyosiy tahlil qilinib,

matematika darslari orqali tanqidiy fikrlash va kreativlikni, tarbiya darslari orqali esa kommunikativlik hamda kollaborativlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari asoslangan. Natijada 4K kompetensiyalarining o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilarda tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik, mustaqil qaror qabul qilish, jamoani boshqara olish va samarali hamkorlik qilish kabi liderlik sifatlarini rivojlantirishning muhim omili ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Uchinchi paragrafda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha AQSH, Singapur va Finlandiya ta’lim tizimlarining ilg‘or pedagogik tajribalari hamda O‘zbekiston amaliyoti qiyosiy tahlil qilingan. Mazkur mamlakatlarda 4K kompetensiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, o‘quvchilarda kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va kollaborativlikni rivojlantirish orqali liderlik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarning o‘ziga xos jihatlari aniqlangan. Qiyosiy tahlillar natijasida mazkur tajribalarning milliy ta’lim tizimiga mos pedagogik imkoniyatlari asoslanib, boshlang‘ich ta’limda 4K modeli asosida liderlik sifatlarini rivojlantirishning konseptual yondashuvi takomillashtirilgan. Olib borilgan nazariy tahlillar tadqiqotning keyingi boblarida ishlab chiqilgan didaktik tizim, funksional-pedagogik model hamda pedagogik texnologiyani yaratish uchun ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan.

Nazariy manbalar va ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlari tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik, mustaqil qaror qabul qilish, kommunikativlik, hamkorlikni tashkil etish, jamoada ishlash hamda o‘z fikrini asosli himoya qila olish kabi ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘lishi aniqlashtirildi.

Dissertatsiyaning **“4K modeli asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining liderlik sifatlarini tarbiyalash mexanizmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini shakllantirishda 4K modeli kompetensiyalarining pedagogik imkoniyatlari hamda ularni ta’lim jarayonida qo‘llash mexanizmlari yoritilgan. Mazkur bobda matematika va tarbiya fanlari asosida o‘quvchilarda kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali liderlik sifatlarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilingan.


Bobning birinchi qismida boshlang‘ich sinf matematika darslarida kreativ va tanqidiy fikrlash orqali liderlik sifatlarini tarbiyalashning pedagogik asoslari yoritilgan. Matematika fani o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal etish, tahliliy fikrlash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida ochiq javobli masalalar, muammoli vaziyatlar, matematik modellashtirish, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar hamda guruhli faoliyatlarni tashkil etish o‘quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday faoliyat o‘quvchilarda tashabbuskorlik, muammolarni mustaqil hal etish, o‘z fikrini asoslash va jamoada faol ishtirok etish kabi liderlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

OECD tomonidan o‘tkazilgan PISA–2022 tadqiqoti natijalariga ko‘ra matematika savodxonligi bilan kreativ fikrlash o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya

($R^2 \approx 0,75$) aniqlangan. Ushbu natijalar matematik tafakkur o‘quvchilarning ijodiy yondashuvini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini oshirish orqali liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qilishini ko‘rsatadi.

4K modeli asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini tarbiyalash modeli pedagogik modellashtirishning umumiy nazariy asoslari, tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi. Mazkur model boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularda liderlik sifatlarini izchil, maqsadli va samarali rivojlantirishga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida takomillashtirildi. Modelning mazmuniy asosini 4K modelining kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va kollaborativlik kabi o‘zaro uzviy bog‘liq kompetensiyalari tashkil etadi. Ushbu kompetensiyalarni o‘quv jarayoniga maqsadli integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki mustaqil fikrlash, tashabbus ko‘rsatish, o‘z faoliyatini rejalashtirish hamda jamoa bilan hamkorlikda ishlashga oid shaxsiy sifatlarni rivojlantirish imkoniyatlari kengaytiriladi. Modelda matematika fanining mazmuni va o‘ziga xos didaktik imkoniyatlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarda kreativlik va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, nostandart topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, mantiqiy masalalar, muqobil yechimlarni izlash va taqqoslashga asoslangan mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarga ijodiy yondashishi, o‘z qarashlarini asoslay olishi hamda mavjud vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Tarbiya fanida esa kommunikativlik va kollaborativlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik topshiriqlar, interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar, guruhli muhokamalar, rolli o‘yinlar va hamkorlikdagi loyihalardan foydalanish nazarda tutilgan. Ushbu faoliyat turlari orqali o‘quvchilarning o‘z fikrini aniq va ravon ifodalashi, boshqalarning fikrini tinglashi, o‘zaro hurmat va ishonch asosida munosabat o‘rnatishi, jamoada vazifalarni taqsimlashi uchun pedagogik sharoitlar yaratiladi.

Ushbu bobning ikkinchi qismida boshlang‘ich sinf tarbiya darslarida kommunikativ va kollaborativ kompetensiyalarni rivojlantirish asosida liderlik sifatlarini shakllantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Tarbiya fani o‘quvchilarda muloqot madaniyatini rivojlantirish, jamoada hamkorlik qilish, boshqalarning fikrini tinglash, muammolarni birgalikda hal etish hamda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich ta’lim tizimida 4K modeli asosida o‘quvchilarning liderlik sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan pedagogik model takomillashtirildi. Mazkur modelda kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va kollaborativlik kompetensiyalarini o‘zaro integratsiyalash orqali o‘quvchilarda tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik, mustaqil qaror qabul qilish, samarali muloqot yuritish hamda jamoaviy faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaytirildi. Ushbu model o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, natijaviy komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadi (1-rasm).



1-rasm. 4K modeli asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida liderlik sifatlarini tarbiyalash modeli

Shuningdek, o‘quvchilarning boshlang‘ich kompetensiya darajasini aniqlash, 4K kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, jamoaviy loyihalar va ijodiy topshiriqlar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish hamda o‘quvchilarning liderlik sifatlarini monitoring qilish va baholash mezonlari belgilab berilgan. Model tarkibida maqsadli, mazmuniy, protsessual va diagnostik komponentlarning o‘zaro integratsiyasi ta’minlanib, ularning pedagogik jarayondagi funksional bog‘liqligi ochib berilgan. Taklif etilgan pedagogik modelni ta’lim amaliyotida qo‘llash uchun tayyorgarlik – amaliy faoliyat – refleksiya bosqichlariga asoslangan mexanizm ishlab chiqildi. Mazkur mexanizm o‘quvchilarning liderlik sifatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, ularning o‘z-o‘zini baholash, o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda 4K kompetensiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning 3-bobi **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasi va kvalimetriyasi”** deb nomlanadi. Mazkur bobda tadqiqotga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalarining samaradorlik ko‘rsatkichlari tadqiq etilgan.

Tadqiqot doirasida tajriba-sinov ishlari o‘tkazilishi uchun Sirdaryo, Toshkent va Andijon viloyatlaridagi tegishli maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda umumta’lim maktablari rahbariyatlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Tajriba-sinov jarayonlari Sirdaryo viloyatining Guliston shahar 14-sonli, Mirzaobod tumani 17-sonli va Guliston tumani 3-sonli, Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek tumani 205-sonli, Yunusobod tumani 259-sonli va Olmazor tumani 24-sonli, Andijon viloyatining Andijon shahar 24-sonli, Xo‘jaobod tumani 1-sonli va Qo‘rg‘ontepa tumani 3-sonli umumta’lim maktablarida tashkil etildi. Tajriba va nazorat guruhlari bo‘yicha jami 1182 ta 3-4-sinf o‘quvchilari o‘quvchilar jalb etildi. So‘rovnoma va anketa savollariga olingan savollariga olingan natijalar quyidagi ko‘rinishda umumlashtirildi. Ushbu bobda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida 4K modeli kompetensiyalari orqali liderlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazishning tashkiliy-metodik asoslari yoritildi. O‘tkazilgan kuzatishlar va suhbatlar natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida 4K kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Xususan, o‘quvchilarning kognitiv xususiyatlari bilan bog‘liq qiyinchiliklar kuzatilib, ular o‘z fikrlarini mustaqil ifodalashda, muammoli vaziyatlarni ijodiy hal etishda qiyinchiliklarga duch kelishlari aniqlandi. Shuningdek, tajriba va motivatsiya bilan bog‘liq omillar o‘quvchilarning amaliy topshiriqlarda faol ishtirok etmasligi hamda o‘z g‘oyalarini ilgari surishga sust munosabatda bo‘lishiga sabab bo‘layotgani kuzatildi. Ayniqsa, muloqot jarayonidagi faollikning pastligi, jamoada tashabbus ko‘rsatish hamda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga bo‘lgan ishonchning yetarli emasligi o‘quvchilarning liderlik salohiyatini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qilishi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlarining **aniqlovchi (ta’kidlovchi) bosqichida** o‘quvchilarning dastlabki liderlik salohiyati, jamoada ishlashga bo‘lgan munosabati hamda tashabbus ko‘rsatish darajasi o‘rganildi va quyidagi ishlar

amalga oshirildi: maxsus test va so‘rovnomalar ishlab chiqildi; suhbatlar orqali o‘quvchilarning fikrlari va qarashlari tahlil qilindi; o‘quvchilarning nazariy bilimlari, muammoli vaziyatlarga munosabati, tashabbus ko‘rsatish hamda qaror qabul qilish qobiliyatlari baholandi. Ushbu bosqichda test, so‘rovnoma, kuzatish, diagnostika metodlaridan foydalanildi. Natijada, nazorat guruhi va tajriba guruhining boshlang‘ich ko‘rsatkichlari deyarli teng ekanligi aniqlandi.

Shakllantiruvchi bosqichda matematika va tarbiya fanlari integratsiyasiga asoslangan didaktik vaziyatlar hamda o‘yinli mashg‘ulotlar tashkil etildi. Mazkur mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning tashabbuskorligi, jamoada faol ishtiroki, muloqot madaniyati hamda hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar ishlab chiqildi. Tarbiya va matematika darslarida muammoli ta’lim, loyihalash, guruhli faoliyat, keizen, 12 angles, jigsaw kabi metodlardan foydalanildi. Dars jarayonida o‘quvchilarning faolligi, savol berish darajasi, jamoada fikr almashish madaniyati hamda muammolarni hal etishdagi mustaqilligi kuzatilib, interfaol metodlardan samarali foydalanildi.

Yakuniy bosqichda esa o‘quvchilarning 4K kompetensiyalaridagi ijobiy o‘sish matematik topshiriqlarni ijodiy yechish, tarbiya darslaridagi muloqot madaniyati hamda jamoaviy faoliyatdagi ishtirok orqali aniq namoyon bo‘ldi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida o‘quvchilarda 4K modeli kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash asosiy vazifa sifatida belgilandi. Ushbu bosqichda o‘quvchilarda liderlik sifatlarining samaradorligini baholashda matematik statistika, student mezoni kabi usullari qo‘llanildi. (1-jadval).

1-jadval.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida 4K modeli asosida liderlik sifatlarini rivojlantirish samaradorligini baholash mezonlari va darajalari

№	Kompetensiyalar	Yuqori daraja	O‘rta daraja	Past daraja
1.	Kreativlik (ijodiy fikrlash)	O‘quvchi muammolarga noodatiy yechim topadi, yangi g‘oyalar ilgari suradi, topshiriqlarga ijodiy yondashadi, jamoada tashabbus ko‘rsatadi.	O‘quvchi ijodiy yondashuvga intiladi, biroq yechimlarda barqarorlik yetarli emas, ko‘proq namunaga tayangan holda ishlaydi.	O‘quvchi topshiriqlarni shablon asosida bajaradi, yangi g‘oyalar bildirishda qiyinchiliklarga duch keladi.
2.	Tanqidiy fikrlash	Muammoli vaziyatlarni tahlil qiladi, dalillarga asoslanadi, qarorlarini mantiqiy asoslaydi, turli nuqtayi nazarlarni solishtiradi.	Tahlil qiladi, biroq xulosalar yuzaki bo‘ladi, dalillashda o‘qituvchi yordamiga muhtoj.	Muammoni chuqur tahlil qilmaydi, dalillarni aniqlash va baholashda qiyinchiliklarga duch keladi.
3.	Kommunikativlik	O‘z fikrini aniq va asosli ifodalaydi, jamoada faol muloqot qiladi, boshqalarni tinglaydi va hurmat	Muloqotda ishtirok etadi, biroq fikrini to‘liq ifodalashda va tinglashda barqaror emas.	Muloqotda passiv, o‘z fikrini ifodalashda qiyinchilikka duch keladi.

		qiladi.		
4.	Kollaborativlik	Jamoada yetakchilik qiladi, mas’uliyatni bo‘lishadi, hamkorlik muhitini yaratadi.	Guruh ishida qatnashadi, biroq tashabbus va mas’uliyat yetarli darajada emas.	Guruh faoliyatida sust ishtirok etadi, hamkorlikdan qochishga moyil.

